



MECHANISMS FOR PROVIDING AND SUPPORTING THE EQUALITY OF WOMEN AND GIRLS IN SOCIETY

Dilrabo Kurbanova

Associate Professor

Urgench Innovation University

Urgench, Uzbekistan

E-mail: dilrabokurbanova17@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: gender equality, woman, government, politics, activist, law, law, mechanism, the world.

Received: 10.02.25

Accepted: 12.02.25

Published: 14.02.25

Abstract: This article examines the mechanisms for ensuring and supporting women's rights to gender equality in public life in Uzbekistan and the world. Also in the regulatory documents adopted by our state, there is a mention of the attention and proposals paid to the women's issue.

JAMIYATDA XOTIN-QIZLAR TENGLIGINI TA'MINLASH VA QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI

Dilrabo Qurbanova

dotsent

Urganch Innovasion Universiteti

Urganch, O'zbekiston

E-mail: dilrabokurbanova17@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: gender tenglik, ayol, hukumat, siyosat, faol, qonun, huquq, mexanizm, jahon.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston va jahon maydonida ayollarning jamiyat hayotida gender tenglik huquqlarining ta'minlanishi va qo'llab-quvvatlanishi mexanizmlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, davlatimiz tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarda xotin-qizlar masalasiga karatilgan e'tibor va takliflar haqida so'z yuritilgan.

МЕХАНИЗМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ И ПОДДЕРЖКИ РАВЕНСТВА ЖЕНЩИН И ДЕВОЧЕК В ОБЩЕСТВЕ

Дилрабо Курбанова

Доцент

Ургенчский инновационный университет

Ургенч, Узбекистан

E-mail: dilrabokurbanova17@gmail.com

О СТАТЬЕ

<p>Ключевые слова: гендерное равенство, женщина, политика, активистка, механизм, мир.</p>	<p>Аннотация: В данной статье рассматриваются механизмы обеспечения и поддержки прав женщин на гендерное равенство в общественной жизни в Узбекистане и мире. Также в нормативно-правовых документах, принятых нашим государством, есть упоминание о внимании и предложениях, уделяемых женскому вопросу.</p>
--	--

KIRISH. ВВЕДЕНИЕ. INTRODUCTION.

Bugungi kunda O‘zbekistonda xotin-qizlarga katta e‘tibor qaratilmoqda. Jamiyatimizning turli sohalarida ularning faol ishtirok etishlari uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. Mamlakatimizda ayolga bo‘lgan munosabat o‘z tarixiy ildizlariga ega, ajdodlarimiz doimo ayollarni qadrlashga, ularga nisbatan hurmat va izzatda bo‘lishga da‘vat etishgan. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma‘naviy-madaniy islohotlar mamlakatimiz milliy demokratik taraqqiyotini ta‘minlashga, uni modernizatsiyalash va rivojlangan davlatlar darajasiga ko‘tarishga qaratilgan. Ijtimoiy faollikka ega bo‘lgan davlat, jamiyat, oila oldida o‘z javobgarligini his qiladigan shaxslarni tarbiyalashda davlatni va vakillik organlarini, xalqni kuch-qudrati, tashabbusi va qo‘llab-quvvatlashiga tayanishni harakatlantiruvchi kuch sifatida qaralmoqda.

Oxirgi o‘n besh yil ichida fanda “gender”, “gender masalalari”, “genderga e‘tiborli davlat siyosati”, “qonun hujjatlarining gender ekspertizasi” kabi tushunchalarga asoslangan terminologiya ancha keng tarqaldi. Xususan, “gender tengligi” atamasi qo‘llanila boshlandi, bunda, qoida tariqasida, erkaklar va ayollar tengligi tushuniladi [1].

Yangi O‘zbekistonni barpo etish harakatlari xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va gender tenglik siyosatini ta‘minlash jarayonini yangi bosqichga olib chiqdi. O‘tgan qisqa davr mobaynida bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2 ta farmoni, 2 ta qarori, hukumatning 6 ta qarori va 4 ta farmoyishi qabul qilindi [2]. Oliy Majlis Senatida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha qo‘mita tashkil etildi. Tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida [3] hamda “Xotin-qizlarni va erkaklar uchun teng

huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi [4] Qonunlar qabul qilindi. Yangi tashkil etilgan Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi tizimida vazir va hududiy boshqarma boshliqlarining birinchi o'rinbosari lavozimlarida ayollar faoliyat yuritadigan bo'ldi. Ularga mamlakatda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning muammolari bilan ishlash hamda bu borada davlat va jamoat tashkilotlarida ish tashkil etish vazifalari yuklatildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI. ЛИТЕРАТУРНЫЙ АНАЛИЗ И МЕТОДОЛОГИЯ. LITERATURE ANALYSIS AND METHODOLOGY.

Bu ham barcha sohalarda ayol siyosatchi va yetakchi ayollar vakilligi sezilarli darajada oshganidan, mamlakatimizda gender tengligiga erishish yo'lida izchil o'lg'a siljib borayotganidan dalolat beradi.

Mustaqillikning ilk yillarida turli fan soha olimlari M.Irisova, M.Xolmatova, S.Safoyeva, G.Matkarimova, J.Bobonazarova, S.Ahrorova va boshqalar tomonidan olib borilgan izlanishlar doirasida muammoning turli jihatlarini ochib berilgan.

Ijtimoiy soha olimlari N.Muravyova, Yu.Ergasheva, T.G'afforova, Sh.Ashurova [5] va boshqa mualliflar mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlarda xotin-qizlarning ishtiroki masalalarining ayrim jihatlarini to'g'risida risola, monografiyalarida ma'lumotlar keltirgan.

S.V.Polenina va E.V.Skurkning fikricha, gender tengligi tamoyilining mohiyati shundan iboratki, ayollar mustaqil (erkin) va teng huquq sub'yektlari, shu jumladan, ular ishtirok etgan taqdirda ma'lum va teng iroda muxtoriyatiga ega bo'ladilar, shuningdek ularning ijtimoiy aloqalari va munosabatlari, huquqlari va qonuniy manfaatlarini amalga oshiriladi[6].

A.A.Maksimov "gender tengligi deganda jamiyat tomonidan davlat orqali o'rnatilgan gender munosabatlarini qurish tamoyili tushunilishi kerak", deb hisoblaydi, ayni paytda "gender tengligi erkaklar va ayollarga berilgan huquqlar, asosiy erkinliklar va burchlar tengligida o'z ifodasini topadi"[7].

V.V. Chvikalov "gender tengligi" toifasi ostida prinsipni - erkaklar va ayollar huquqlarining huquqiy va haqiqiy tengligini va ularni amalga oshirish imkoniyatlarini mustahkamlovchi g'oyani tushunadi[8].

O.V.Nechayeva gender tengligini "ayollar va erkaklarning teng huquqiy maqomi va uni amalga oshirish uchun teng imkoniyatlar, har ikki jins vakillariga ham o'z potensial qobiliyatlarini erkin rivojlantirish, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotda ishtirok etish ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon berish", deb tushunadi[9].

Jahonda hozirgi zamon sharoitida xotin-qizlar masalasiga bo'lgan munosabatdagi o'zgarishlar va gender tenglikni ta'minlash ishlari dolzarb masalalar qatoridan joy oldi. Bu esa

o'z navbatida xotin-qizlar muammolarini hal qilishning yangicha tamoyillarini ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqardi. XX asr oxiri – XXI asr boshlarida dunyoda xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeini ko'tarishga e'tiborning ortishi ushbu masalalar bo'yicha xalqaro institutlar tashkil etilishiga asos bo'ldi. Mazkur jarayonlar jahonning qator davlatlarida xotin-qizlar masalasi bo'yicha amalga oshirayotgan siyosatni shakllantirishga xizmat qildi.

Dunyo mamlakatlarida so'nggi yillarda xotin-qizlar faoliyati yuzasidagi tadqiqotlar ko'lami doirasi kengayib, yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlarda ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotidagi faol ishtirokini o'rganishga qaratilgan bir qator izlanishlar amalga oshirildi. Xususan, mintaqalarda gender tenglik, xotin-qizlarning siyosiy maydondagi obro'sini ko'tarish, ularga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish, ularning yashash va mehnat sharoitini yaxshilash kabi mavzulardagi tadqiqotlar bajarildi. Milliy yuksalish yillarda jamiyatdagi o'zgarishlarga hamohang yangi O'zbekistonda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash borasida alohida e'tibor berilmoqda [10]. Prezident ta'kidlaganidek: "... bugun O'zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining asosiy maqsadi – ayollarimizga e'tibor va amaliy g'amxo'rlik ko'rsatishni yangi, yuksak bosqichga olib chiqish, xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni, maqomini mustahkamlash, ularning huquq va manfaatlarini ta'minlashdir"[11].

BMTning Butunjahon federatsiyasi tavsiyasiga ko'ra, mahalliy darajadagi lavozimlarga ayollarni tayinlash yoki saylash ularni yuqori darajadagi davlat lavozimlariga zarur bo'lgan ko'nikmalariga ega bo'lishiga olib keladi.

NATIJALAR. РЕЗУЛЬТАТЫ. RESULTS.

Siyosatda ayollar ishtirokini oshirish bo'yicha qator davlatlar o'zining mexanizm va siyosatlarini ishlab chiqqan, BMTTD, BMT Ayollar, YeXHT, IHTT, Gender tenglik bo'yicha Yevropa instituti kabi xalqaro tashkilot va muassasalar o'z tavsiyalarini ishlab chiqqan. Ular orasida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Siyosiy partiyalarning gender siyosati. Partiya ichida o'zining kvotalarining belgilanishi turli bosqichlarda xotin-qizlarni siyosatga jalb etishda siyosiy partiyalarning muhim rolini ko'rsatadi. Masalan, Malta Leyboristlar partiyasi 1990 yillardan boshlab partiyadan saylov ro'yxatlarini tuzishda 20 % ayollar uchun kvota ajratishni hamda milliy darajada partiya ijroiya qo'mitalari rahbarlarining uchdan bir qismi (12 nafardan 4 nafari) ayollar bo'lishi kabi qoidalarni joriy etgan. Partiyaning ushbu strategiyasi sezilarli natijalarni qo'lga kiritishga sabab bo'ldi: hozirgi kunda Malta parlamenti deputatlarining uchdan ikki qismini ayollar tashkil qiladi.

Partiyada gender auditni o'tkazish orqali ayollarning ishtiroki partiyaga siyosiy maydonda qanday yordam berishi mumkinligini aniqlash mumkin. Bunday auditlar natijasida ayollarga karyerada o'sish va jamiyatga tanilish imkoniyatini yaratuvchi partiya dasturlari va siyosat ishlab

chiqiladi. Shu jumladan, partiyalarga partiya ishi bilan band bolali ayollarni qo‘llab-quvvatlash uchun turli jamg‘armalar tuzish tavsiya qilinadi.

2. Fraksiyalararo assosiatsiyalar va guruhlar. Gender tenglikni ta‘minlashni maqsad qilib olgan fraksiyalararo assosiatsiyalar va guruhlar ayollarga siyosatdagi muhim masalalarni ko‘tarishga, jamiyatga tanilishda, boshqa deputat ayollarni qo‘llab-quvvatlashda, turli gender bilan bog‘liq kamsitishlarga qarshi turishda yordam beradi. Bunday birlashmalar o‘zaro yordam ko‘rsatish va gender tengligi bo‘yicha yechimlarni ishlab chiqish uchun muhim platforma hisoblanadi.

3. Murabbiylik. “Katta siyosat”dan hadiksirash, o‘zining qobiliyatlarini shubha ostiga qo‘yish, stereotiplar va boshqa jihatlar ayollarning siyosatga kirishiga to‘sqinlik qiladi. Maxsus murabbiylik (shu jumladan, siyosiy partiyalar tomonidan ishlab chiqilgan) dasturlari bunday ayollarga ko‘proq tajribaga ega bo‘lgan siyosatchi ayollardan o‘rganish, ayol deputat yordamchisi bo‘lish orqali o‘z malakasini oshirishga yordam beradi. Murabbiylik dasturlari allaqachon deputat bo‘lib saylangan ayollarga ham foydali bo‘lishi mumkin, bunday dasturlar ularga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishga, shunchaki deputat emas, balki liderga aylanishiga yordam beradi.

4. Ayollar uchun trening va liderlik dasturlari. Allaqachon lavozimda bo‘lgan ayollar va endigina siyosiy faoliyatini rejalashtirayotgan ayollar uchun turli xil trening va yetakchilik dasturlariga ham e‘tibor berish kerak. Bunday dasturlar ayollarga nafaqat byudjetni tushunish va qarorlar loyihasini tuzishni o‘rgatadi, balki ular uchun muloqot doirasini kengaytirish, o‘ziga ishonchga ega bo‘lish, o‘zini himoya qilish mexanizmlarini o‘rganish, qat‘iyatli bo‘lishga yordam beradi va shu tariqa ayol siyosatchilarni shakllantirishga xizmat qiladi.

XULOSA. ЗАКЛЮЧЕНИЕ. CONCLUSION

Yuqoridagilarga ko‘ra, davlat boshqaruvida xotin-qizlar ulushini oshirish uchun siyosiy partiyalarning ishtirokini yanada kengaytirish yuzasidan quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Siyosiy partiyalarning ayollar ijtimoiy himoyasini ta‘minlashga doir dasturlarini amalga oshirishda moddiy yordam ajratish.

2. Siyosiy partiyalar tomonidan o‘z faoliyati, shu jumladan partiyaning kadrlar siyosatini olib borish yuzasidan gender auditni o‘tkazish tartibini joriy etish.

3. Siyosiy partiyalar qoshida ayollar uchun o‘z qobiliyatini rivojlantirishga oid maxsus murabbiylik, liderlik dasturlarini yo‘lga qo‘yish.

4. Saylov kodeksining ayrim moddalarida ayollarning soni siyosiy partiyadan ko‘rsatilgan deputatlikka nomzodlar umumiy sonining kamida qirq foizini tashkil etishini belgilash.

5. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida deputatlikka va xalq deputatlari mahalliy kengashlari a'zoligiga ko'rsatiladigan nomzodlar uchun belgilangan kvotalar talablariga rioya etmaganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilash.

6. Quyi bo'g'inlarda rahbarlikka nomzodlar ayollar bilan yetakchilik qobiliyatini oshirish bo'yicha uslubiy treninglarni doimiy o'tkazish.

7. Yangi saylangan yoki tayinlangan rahbar ayollar uchun ish bilan bir vaqtda birga olib boriladigan alohida maxsus o'quv kurslarini yo'lga qo'yish.

Xullas, ayollarning jamiyat va davlat hayotida faolligini oshirish uchun, hukumat tomonidan xotin-qizlar huquqini qonuniy himoya mexanizmlarini ham kuchaytirishni nazarda tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI: (СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ССЫЛОК. LIST OF LINKS USED)

1. Акимова Ю.А. Конституционная концепция гендерного равноправия. // Государственная служба и кадры. - №8, 2018. – С.22.

2. Мирзиёев Ш. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг йигирманчи ялпи мажлисидаги нутқи // Халқ сўзи. - №127 (7357) 22.06.2019.

3. Поленина С.В., Скурко Е.В. Право, гендер и культура в условиях глобализации. – Москва: Формула права, 2009. – С.19.

4. Ўзбекистон Республикаси “Хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисида” 2019 йил 2 сентябрдаги ЎРҚ 561-сонли Қорори / Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 2019 йил 3 сентябрь. 03/19/561/3680- сон

5. “Хотин-қизлар ва эркеклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни (ЎРҚ-562-сон 02.09.2019)

6. Муравьёва Н. Ўзбекистон хотин-қизлари ижтимоий мақомини юксалтириш. – Тошкент, 2004. – Б. 121.

7. Эргашева Ю.А., Раҳмонкулова О.А. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда миллий амалий санъатнинг тикланиши ва ривожланиши. Монография. – Тошкент: “Муסיқа”, 2017. – Б. 133.

8. Эргашева Ю., Имомова Г. Қашқадарè илм юлдузлари. – Қарши: “Интеллект-нашриёт”, 2021. – Б. 247; Ғаффорова Т., Ашурова Ш. Қашқадарè олималари. – Тошкент, 2006. – Б. 100.

9. Максимов А.А. Положение гендерного равноправия в системе принципов правового статуса личности в России. // Проблемы права. - №5(36), 2012. – С.31.

10. Чвыкалов В.В. Гендерное равенство в праве. Дисс...канд.юрид.наук. – Краснодар, 2012. – С.9.
11. Нечаева О.В. Гендерные проблемы России как социального государства. Дисс...канд.юрид.наук. – Челябинск, 2007. – С.12-13.
12. Хотин-қизлар ва эркалар учун тенг ҳуқуқ ва имкониятлар кафолатлари тўғрисида” ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни. Тошкент. 2019 йил 2 сентябрь.
13. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси. // <https://gomus.info/encyclopedia/category/uzbekiston-respublikasi-oliy-majlisi-uz>
14. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги қарори. 2020 йил 4 январь. 3-сонли қарор.